

TALABALARNING TURIZMGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Amanbaev Timur Gayratbayevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Sirtqi ta'lim bo'limi dekani o'rinbosari

O'zbekistonning turizm sohasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar va strategik rejalashtirishlar, iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari asosida turizm sohasining rivoji uchun zarur infratuzilma yaratilib, yangi investitsiyalar jalb etilmoqda. Masalan, 2018-yilda "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning 2019-2025 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu strategiya turizmni iqtisodiy o'sishning asosiy manbaiga aylantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hamda turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlashni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator davlat dasturlari va qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar joriy etilgan.

O'zbekistonning turizm sanoatini rivojlantirish uchun malakali va yuqori darajadagi mutaxassislar tayyorlash zarurati kundan-kunga oshib bormoqda. Shu bois, mamlakatda turizm sohasiga oid ta'lim tizimini takomillashtirish va pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonning turizm sohasidagi muvaffaqiyatlarini yanada mustahkamlash uchun pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarga yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishga katta hissa qo'shadi.

Turizmga oid kompetensiyalar, bu sohada ishlash uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyalarni talabalar o'z ta'lim jarayonida egallashlari kerak. Ularni rivojlantirishda, ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida zamonaviy o'qitish metodlari, onlayn kurslar, simulyatsiyalar, virtual sayohatlar kabi usullar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, interaktiv va amaliy metodlar, masofaviy ta'lim platformalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori hamda 2020-yilda tasdiqlangan "Yuqori texnologiyalar asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish" bo'yicha davlat dasturi turizmni o'rganish va o'rgatish tizimini yangilashni o'z oldiga

maqsad qilib qo'ygan. Ushbu hujjatlar ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi va turizm sohasidagi kadrlarni tayyorlashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.


Pedagogik innovatsion texnologiyalar – bu ta'lim jarayonida talabalarning o'qish jarayoniga faol ishtirok etishini ta'minlash, ularning bilim olishda yangi yondashuvlarni qo'llash imkonini beruvchi metod va vositalardir. Ushbu texnologiyalarni qo'llash orqali turizmga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda interaktiv usullar, case-study (holat tahlili), rolli o'yinlar, simulyatsiyalar va onlayn ta'lim platformalari muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Turizmga oid kompetensiyalar — bu turizm sohasi mutaxassisi bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni anglatadi. Kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar, mehnat bozoridagi talablar va turizm sanoatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, pedagogik innovatsion texnologiyalar yordamida talabalarni samarali tayyorlash mumkin. Shu maqsadda, talabalar uchun innovatsion treninglar, onlayn kurslar va virtual sayohatlar tashkil etilishi mumkin.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv axborotlashgan jamiyatda kasbiy harakatlarni amalga oshirish va ta'lim oluvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq o'qitishga qodir bo'lgan zamonaviy kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan. So'ngi paytlarda oliy ta'lim muassasasida bo'lajak kadrlarni tayyorlashning strategik yo'nalganliklarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi, chunki jamiyat va davlatning intellektual jihatdan rivojlanishini aynan pedagog kadrlar belgilaydi. Shu maqsadda, pedagogika oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida bazaviy kompetensiyani rivojlantirishga ko'maklashadigan sharoit va vaziyatlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Pirovard maqsadni bilimlar emas, balki kompetensiyalar tomon o'zgartirishga muhtoj kompetensiyaviy yondashuv Vatanimiz ta'lim tizimida qonuniy jihatdan mustahkamlanganligiga, mazkur yondashuvga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, uning asosiy tushunchalarini tavsiflaydigan tushunchalar apparati hali tamomila shakllangan emas.

Tadqiqot doirasida kompetensiyaning quyidagi integral komponentlar o'zaro ta'sirining integral natijasi hisoblanishi asoslandi (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiyaning integral komponentlari

Mazkur kompetensiyaning integral komponentlari quyidagicha talqin qilindi: motivatsiyali, jaraʼnning shu turiga manfaatdorlik, chuqurqiziqish, muayyan vazifani hal etish uchun shaxsiy mazmunning mavjudligida oʻz ifodasini topadi; maqsadli, shaxsiy mazmunlar bilan nisbatlanadigan shaxsiy maqsadlarni belgilash malakasi, faoliyatdan kutilgan natijaga erishishni taʼminlaydigan shaxsiy reja hamda loyihalarni tuzish, muayyan xatti-harakatlar, xulq-atvori ongli konstruksiyalash bilan bogʻliqdir; yoʻnalganlik, faoliyatning tashqi (faoliyatning umumiy asosini anglash, ularga doir bilim, real obʼektlar doirasini bilish, koʻnikma hamda malakalar) ichki sharoitlarini (mavjud fanga oid hamda fanlararo bilim, koʻnikma hamda malakalar, faoliyat usullari, subʼektiv tajriba, psixologik xususiyatlar va h.k.); taʼlim oluvchining oʻz shaxsining kuchli hamda zaif tomonlari ustida ishlashini hisobga olishni nazarda tutadi; funksional, bilim, koʻnikma hamda malakalar, faoliyat usullari, axborot savodxonligidan oʻzining mumkin boʻlgan xatti-harakat variantlari, qaror qabul qilish, oʻzaro hamkorlikning yangi shakllarini qoʻllashda baza sifatida qoʻllash qobiliyatini koʻzda tutadi; nazorat, faoliyat jarayoni hamda natijalarining aniq mavjudligini, faoliyatning toʻgʻri usullarini mustahkamlash, belgilangan hamda qabul qilingan maqsadga muvofiq xatti-harakatlarni rivojlantirishni koʻzda tutadi; baholash, oʻz-oʻzini tahlil qilish, oʻz nuqtai nazarini, muayyan bilimini, oʻzining faoliyati kerakligi yoki zarurmasligini oʻzi adekvat baholash kabilarga qodirlik bilan bogʻliq.

Demak, bu komponentlar talabaning umumiy kompetensiyasi strukturasi oʻzaro uzviy bogʻliqdir. Shu sababli har bir komponent boshqalarining rivojiga taʼsir koʻrsatishi tabiiy jaraʼn.

Bo'lajak kadrning axborot-kommunikativ kompetensiyasi - uning kasbiy kompetensiyasining bir qismi tushuniladi, u qat'iy belgilangan sohani ifodalamaydi, ya'ni, faqat ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq texnik bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, balki u bilan izchil va uzviy bo'lgan soha bo'lib hisoblanadi.

Axborot-kommunikativ kompetensiyaning ta'lim hamda o'qitishga ta'siri shuni anglatadiki, o'quv tajribasini yaxshilashda raqamli texnologiyalardan keng hamda samarali foydalanish kerak, bunda pedagoglar kompyuterlar, interfaol doskalar hamda Internet kabi bir qator texnologiyalarni integrasiyalashgan xolda qo'llashni amalda foydalanishlari kerak. Raqamli texnik qurilmalar, dasturiy ta'minot va ulanish sohasidagi bunday integrasiyalashgan yondashuv talabalarga ta'lim va o'qitish jarayonlariga innovasion yondashuvlarni ishlab chiqish muhim deb hisoblaymiz.

Tadqiqot jarayonida axborot-kommunikativ kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida foydalanishda dasturiy ta'minotini shakllantirish hamda didaktik foydalanish imkoniyatlari quyidagilardan iborat: nazariyani tayyorlash uchun (ovoz yozish fayllari yordamida taqdimot yaratish, turli xil tasvir hamda video fayllarni qo'llagan holda video material ishlab chiqish); seminarlarni amalga oshirish uchun (rasmlar yoki fotosuratlar yordamida texnik naqshlarni yaratish; kiyim modellarini loyihalash; turli kompozitsiyalar ishlab chiqish); fanga tegishli axborot-kommunikativ kompetensiyalarini shakllantiruvchi dasturlarni amalda foydalanishni o'rganish.

Axborot-kommunikativ kompetensiyalarining asl ko'rinishi bu raqamli texnologiyalardan foydalanish malakasi - ta'limdagi kompetensiyaning asosiy xususiyatlaridan biri.

Raqamli texnologiyalar orqali axborot-kommunikativ kompetensiyalarini oshirish uchun taqdim etilayotgan algoritm bo'yicha topshiriqlarni bajarish rejimida ishlash talabalarga o'z-o'zini nazorat qilish, tekshirish, tanqidiy fikrlashga oid topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerakli malakalarni rivojlantirib mustaqil va ijodiy fikrlay olish imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalardan auditoriyada dars jarayonida foydalanishning quyidagi afzalliklari bor: raqamli texnologiyalarning potensial afzalliklari shundaki, u dialog va emansipasiya amaliyotini rivojlantirishi mumkin; dialogik amaliyot - bu o'quvchilarning faol va vakolatli ishtirokchilar bo'lgan suhbatlar asosida ta'lim olishi. Misol uchun, matematikadan modellashtirish dasturida ishlayotgan talabalar hali mavjud bo'lmagan terminologiyaga tayanmasdan ham kompyuter ekranida ko'rgan narsalari haqida suhbat qurishlari mumkin. Keyin talaba loyiha rivojlanishi bilan suhbatga tegishli tilni qo'shishi mumkin; emansipator amaliyot - bu individual talabaning g'oyalari o'quv dasturi tomonidan belgilangan ta'limdan tashqariga chiqadi, chunki ular tushunishni shakllantirish uchun rasmiy ta'limdan tashqari olingan bilimlarga asoslanadi. Masalan,

matematikada o'quvchilar raqamli texnologiyadan foydalanish bo'yicha o'zlarining bilim hamda tajribasidan foydalanib, o'zlarining dasturiy ta'minotdan qanday foydalanishlarini ko'rsatishlarilozim (ehtimol, mobil telefonlar yordamida).

O'quv jarayoniga takomillashgan raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak kadrlarning axborot-kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish modelini tadbqiq etar ekanmiz, bo'lajak kadrning axborot madaniyati bilan birga axborot-kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlarini ham quyidagilar asosida belgilab olishimiz kerak: axborot faoliyatiga, fikrlash madaniyatini rivojlantirishga tayyorlik; olingan axborotni tizimlashtirish qobiliyati; axborotni maqsadli va tizimli izlash, ularni talqin qilish va tarqatishga qodirlikni jamlagan integrativ sifatlar. Bo'lajak kadrlarning axborot kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning boshlang'ich metodologik asoslari ishlanganligi, katta hajmda nazariy-tajriba materiali mavjud ekaniga qaramay, an'anaviy ta'lim tizimida bu ilmiy salohiyatdan hamon etarli darajada foydalanilmayapti. Bo'lajak kadrning axborot kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish tajribasi ta'lim jarayonini tashkil qilishda an'anaviy ta'lim, masofaviy ta'lim, aralash ta'lim muhitlaridan unumli foydalanish uchun pedagogik modellar yaratib, ularni tatbiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqot doirasida auditoriyada raqamli texnologiyalardan foydalanishning quyidagi qiyinchiliklari mavjud ekanligi aniqlandi: an'anaviy guruhda o'qitish kontekstlari bilan solishtirganda samaraliekkanligi hali isbotlangan raqamli texnologiyalar hamda ilovalarga bugungi vaqtda ko'p vaqt hamda resurslar sarflanmoqda, talabalar va muassasalar raqamli texnologiyalardan qachon, nima uchun va qanday foydalanish, shuningdek, ularning samaradorligini baholash haqida yaxshilab o'ylab ko'rishlari kerak; texnologiyani tatbiq etish va undan keyin xizmat ko'rsatish qimmatga tushadi, chunki tizimlar tezda eskirib ketishi mumkin; mavjud infratuzilma bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin, masalan, internet ulanishlari mos kelmasligi yoki sekin bo'lishi mumkin; talabalar xavfsizligini ta'minlash asosiy muammo bo'lib, kiberbuzg'unchilikning oldini olish, shaxsiy ma'lumotlarni buzish, noqonuniy yoki taqiqlangan materiallarga kirish va o'rganishdan chalg'ituvchi omillar; ba'zi texnologiyalardan foydalanish zararli bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anderson, T. (2008). The Theory and Prastise of Online Learning. Athabassa University Press.
2. Biggs, J., & Tang, S. (2011). Teaching for Quality Learning at University. MsGraw-Hill Edusation.

3. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. Routledge.
4. McKenzie, J. (2007). The Role of Technology in Education: Past, Present, and Future. International Journal of Educational Technology.
5. Bekzodov, D. A. (2017). Pedagogik texnologiyalar va ta'lim metodlari. Tashkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti nashriyoti.
6. Mamadaliyev, M. (2019). Turizm va mehnat bozorining o'zaro aloqasi. Toshkent: Iqtisodiyot va turizm nashriyoti.
7. Sharipov, R. X. (2018). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Bukhara: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
8. Soliyev, D. (2016). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limdagi roli. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
9. Turg'unov, D. A. (2020). Turizm sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar. Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti nashriyoti.
10. Yusuf, A. R. (2022). O'zbekiston turizmida pedagogik innovatsion yondashuvlar. Tashkent: O'zbekiston Matbuoti nashriyoti.